

ISH VAQTI HAQIDA

Azbergenov Nawrizbek

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Yuridika fakulteti “Yurisprudensiya” yo’nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ish vaqti muddatining ishning samaradorligin oshirishda o'rni, dunyo mamlakatlarining ish vaqti bo'yicha o'rnatqan tartiblari, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda bu masalaga yondoshuv.*

Kalit so'zlar: *ish vaqti, dunyo statistikasi, eng zahmatkash mamlakatlar, ish vaqti qisqa mamlakatlar, mehnat unumdorligi.*

Mehnat kodeksining 114-moddasida ish vaqti haqida quyidagicha tushincha berilgan : “Xodim ish tartibi yoki grafigiga yoki mehnat shartnomasi shartlariga yarasha o'zlari mehnat vazifalarini bajarishni zarur bo'lgan vaqt ish vaqti hishoblanadi”. Mamlakatimizda normal ish vaqti haftasiga 40 soatdan oshib ketmasligi kerakligi haqida Mehnat Kodeksining 115-moddasida atab o'tilgan. Hozir dunyo uchun 40 soatlik ish haftasi standart bo'lib qolmoqta. Biroq kelajakda bu tendensiya ham o'zgarishi mumkin.

1930-yillarda iqtisodchi Jon Meynard Keynes dunyo 2030-yilga borib, texnologik rivojlanish sababli 15 soatlik ish haftasiga o'tadi, deb bashorat qilgan. Dunyo hozircha bu tendensiyadan uzoq, lekin turli ish usullari va texnologiyalar ishlab chiqarish obyektlarida doimiy turda sinovdan o'tkazib borilmoqda.

Bu natijaga erishish osonlikcha bo'lmagan. Ish vaqtini qisqartirish uchun insoniyat ko'plab ko'tarilish va inqiloblarni boshdan kechirgan. Insoniyat tarixida birinchi marta kuniga 8 soatlik mehnatti 1914-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida avtomobil ishlab chiqarish korxonasi asoschisi Genri Ford o'z xodimlariga taklif etgan. U o'qituvchi va faylasuf Robert Ouenning 8/8/8 yani, 8 soat uyqu, 8 soat ish, 8 soat dam olish degan g'oyasidan ilhomlangan holda ushbu tendenciyaning o'zlari qo'l ostidagi ishchilarga qarata qo'llagan. Uning boshqa hamkasblari bunday harakatti axmoqlik deb hishoblagan.

Biroq, vaqt shuni ko'rsattiki —ajoyib ishbilarmen Genri Ford bu yerda mag'lub bolmadi, uning kompaniyasining foydasi yangi tendensiya bo'yicha ikki baravar ko'paydi! Xodimlar ko'proq dam olish imkoniyatiga ega bo'ldi, bu esa avtomatik turda yanada samarador ishlash uchun kuch berdi. Fordning bu ishi ko'pchilikka namuna bo'ldi - 8 soatlik ish kuni standarti dunyoga tarqaldi. Hozir kunda insoniyat eng kam ish vaqti Niderlandiyada bo'lib, aholishi haftasiga 29 soat ishlaydi. Keyingi o'rinda Daniya va Norvegiya - haftasiga 33 soat, 3-o'rinda bo'lsa Avstraliya (haftasiga 34 soat) turadi. Hammaga zahmatkash aholi sifatida ma'lum bo'lgan Germaniya bo'lsa haftasiga 35 soatdan ko'p ishlamaydi. Mamlakattagi iqtisodiy krizis sababli, xodimlarni ishdan bo'shatishdan ko'ra ish vaqtini qisqartirishni abzal ko'rgan. O'tgan yillardagi statistikaga ko'ra, yil davomida eng ko'p

ishlaydigan mamlakatlar bular—Meksika, Kosta-Rika, Janub Koreya, Greciya, Chili kabi mamlakatlardir. E'tibor bering : bu davlatlarning ko'plari asosan " o'rta darajadagi" va " o'rtachadan quyi" mamlakatlar, eng rivojlangan emas, balki eng qoloq davlatlar ham emas. Umuman olganda, nima uchun ko'plab Osiyo mamlakatlari bu TOPga kirgani aniq emas, bu yerda ko'p ishlash yaxshi hishoblanadi, odamlar asosan dam olmaydilar va ta'tilga chiqmaydi. Bu asosida ularning mintaliteti bilan aloqador bo'lishi mumkin. U, eng qisqa vaqt ish ishlaydigan davlatlarning TOP 10 ligiga bo'lsa Yevropa mamlakatlari kirgan. Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotida mehnat unumdarliligi ishlagan soatdan ko'ra muxim hishoblanadi. Qisqartirilgan ish kuni va ish haftasining asosiy afzalliklari :

Inson ishta kamroq charchaydi, ya'ni u yanada samarador ishlashi mumkin ;

Cheklangan ish vaqti chalgishga o'rin qoldirmaydi.- xodim mehnat jarayoniga to'liq jalb qilinadi ;

Ish vaqti qanchalik qisqa bo'lsa, shuncha ko'p diqqatni ishga jamlay oladi ;

Xodim ko'proq vaqtini uyda, oilasida va do'stlari doirasida o'tkazadi, qiziqtirgan mashg'ulotlariga ko'proq vaqt ajratadi, dam oladi, demak, uning mehnatga kuch va quvvati ko'proq ;

Kamroq ishlaydigan odam salomatligida muammolar kamayib, ko'proq kuchga ega bo'ladi.

Buni maksimal va minimal ishlaydigan Yevropaning ikkita davlati— Greciya bilan Germaniya misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, OECD ning mehnat natijalari bo'yicha xulosasida kam ishlaydigan Germaniyada ish unumdarliligi Greciyaga nisbatan 70% ga ko'p ekanligi aniqlangan.

Endi ko'p ishlashning minus tomonlari ko'rib chiqsak. Bunda «mehnatga o'ch» bo'lgan Osiyo mamlakatlariga e'tibor qaratish zarur. Hattoki bu davlatlarda «ish ishlashdan o'lish» degan mohiyatti ifodalavchi “karoshi” degan nomlari bor bo'lib, haqiqatda ham ko'pchilik ishchilar ish vaqtida vafot etadi. Janubiy Koreya OECDning ko'p ish ishlovchi mamlakatlar reytingida TOP 10 liktan birnecha yillar davomida o'rin egallab kelmoqda. Bu mamlakat aholishi orasida qonun bilan 40 soat etib belgilab qo'yilgani bilan, haftasiga 50 soatdan ishlash normal holatga aylangan. Xodimlar nafaqaga chiqmaganligi sababli ko'p oylik oladi, binobarin bitta oy davomida ishlagan ish haqi barobariga xorijiy davlatlarga borib dam olib qaytishlari mumkin. Biroq, haddan tashqari ko'p ish ishlash natijasida ham ruhan, ham jismonon hordiq natijasida xodimlar haftasiga ikki marta yoki undan ham ko'p spirtli ichimlik ichadi. Bu zamonaviy ichimlik subkulturalik madaniyatni «xusik» deyiladi. Bu marosim hamkasblar ish vaqti tugallangannan so'ng, hamkasblar birgalikda ovqatlanish va ichimlik ichish uchun o'tkaziladi. Xodimlarning haddan tashqari ko'p ishlashi taqozo etilganligi sababli bu ziyofat Koreya madaniyatining subkulturasigaa aylandi. Osiyo jamiyatida ish, o'qish sohasinda yoshlarga ko'p bosim yuklatilishi sababli ayni vaqitda Janubiy Koreyada “sampo” avlodi paydo bo'ldi. Bu avlod oila qurib, farzandli bo'lishdan bosh tortmoqda, binobarin oxirgi vaqtda mamlakat damografiyasi pasayib, tug'ilishlar soni

o'lishlar sonidan kamayib barmoqta. Bu yosh avlodning jamiyatdagi ish sohasida qo'yilgan yuqori standartlariga zid reaksiyasi bo'ldi

Umumiy olganda ish vaqti haqida Osiyo davlatlariga emas, Yevropa davlatlariga e'tibor qaratish zarur deb o'ylayman. Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotida mehnat unumdorligi ishlagan soatdan ko'ra muxim. Eng kam ish vaqti bo'lgan 10 mamlakatga kiritilgan barcha Yevropa mamlakatlari eng rivojlangan mamlakatlar ekanligi ham bekorga emas. Yakunlab ayqanda, kuchli iqtisodiyot uchun ko'p ishlash zarur emas, samarador ishlash zarur deb oylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekdan Respublikasi Mehnat Kodeksi
2. Mehnat nizolari va ularni hol etishhning huquqiy muammolari. Y. Tursunov, Sh. M. Gaziev 2009.
3. Mehnat munosabatlariga oid normativ -huquqiy hujjatlar to'plami - 792 b.
Internet materiallari:
 1. <https://lex.uz>
 2. <https://my.gov.uz>
 3. <http://old.mehnat.uz>
 4. <https://stat.uz>
 5. <http://hozir.org>
 6. <https://www.oecd.org/>